

**QONUNCHILIK HUJJATLARI, TOPSHIRIQLAR HAMDA HUKUMAT
QARORLARINING IJROSI YUZASIDAN 2026-YIL YANVAR-IYUN
VA IYUL OYLARIDA “O‘ZAGROINSPEKSIYA”DA AMALGA
OSHIRILGAN ISHLAR**

“O‘zagroinspeksiya” tomonidan ijro intizomiga rioya qilish bo‘yicha ishlar qonunchilik hujjatlari talablari doirasida davom ettirilmoqda va belgilab berilgan chora-tadbirlarning samaradorlik va natijadorligiga katta e‘tibor berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilning 10-fevraldagi PF-6166-sonli, 2025-yil 25-iyuldagi PF-117-son Farmonlari hamda 31-maydagi PQ-5132-sonli qarori talablaridan kelib chiqib, ijro intizomiga rioya qilinishi bo‘yicha har haftaning dushanba va juma kuni muhokama qilinib, o‘tkazilayotgan apparat yig‘ilishlari, kengaytirilgan yig‘ilish hamda rayyosat yig‘ilish bayonlari rasmiylashtirildi va har bir topshiriq ijrosi ta‘minlanishi nazoratga olinib kelinmoqda.

“Ijro.gov.uz” tizimida bajarilishi lozim bo‘lgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan tahliliy axborotlar hamda Inspeksiyaga kelib tushgan qonunchilik hujjatlari ijrosini muddatidan oldin ta‘minlash maqsadida har oyda Kalendar-grafik jadvallari ishlab chiqilmoqda va shu asosida ishlar kunlik tashkilotilib, natijasi bo‘yicha Vazirlar Mahkamasiga axborot kiritilib kelinmoqda.

Tizimda O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyishlari, Prezident Administratsiyasi rahbarining topshiriqlari hamda Hukumatning qaror va farmoyishlari ijrosi qat‘iy nazoratga olingan.

2026-yilning yanvar-iyul oylarida 73 ta qonunchilik hujjatlari va topshiriqlari bo‘yicha 151 ta topshiriq bandi ijro muddati bo‘yicha nazoratga olinib, amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida tegishli davlat organlari va tashkilotlariga axborotlar kiritilishi hamda to‘liq nazoratdan yechilishi ta‘minlandi (jadval ilova qilinadi).

Shu jumladan, joriy yilning iyul oyida Inspeksiyaga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali 1 ta Prezident hujjatlari bo‘yicha kelib tushgan 8 ta topshiriq yuzasidan nazorat rejalari ishlab chiqildi va tegishli ijrochilarga yo‘naltirildi.

Shu bilan birga, “Ijro.gov.uz” tizimida “O‘zagroinspeksiya”ning ish yurituvda bo‘lgan iyul oyi muddatli 17 ta qonunchilik hujjatlari bo‘yicha 28 ta qonunchilik topshiriqlari ijrosi yuzasidan axborotlar tegishli davlat organlariga kiritilib, barcha topshiriqlar belgilangan tartibda nazoratdan yechilishi ta‘minlandi.

2026-yil 22-iyul holatiga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali Prezidentning 52 ta hujjatlari yuzasidan 126 ta topshiriqlari bo‘yicha ishlar davom ettirilmoqda.

Shuningdek, iyul oyida Inspeksiyaga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali Vazirlar Mahkamasining 4 ta hujjati bo‘yicha kelib tushgan 7 ta topshiriqlar yuzasidan nazorat rejalari ishlab chiqildi va tegishli ijrochilarga yo‘naltirildi.

Shu bilan birga, “Ijro.gov.uz” tizimida “O‘zagroinspeksiya”ning ish yurituvda bo‘lgan iyul oyi muddatli Vazirlar Mahkamasining 7 ta hujjati yuzasidan 13 ta topshirig‘i yuzasidan ishlar tashkil qilinib, belgilangan tartibda nazoratdan yechilishi ta‘minlandi.

2026-yil 22-iyul holatiga “Ijro.gov.uz” tizimi orqali Vazirlar Mahkamasining 18 ta hujjat ijrosi yuzasidan 101 ta topshiriq bo‘yicha ishlar davom ettirilmoqda.

2026 yil 23-iyul holatiga Prezident Administrasiyasi va Hukumat komissiyasining hujjatlari bo'yicha muddati o'tgan topshiriqlar mavjud emas.

Shuningdek, tizimdagi qonunchilik hujjatlari bo'yicha keyingi oyda ham topshiriqlar ijrosini qat'iy ta'minlash maqsadida 2026-yil avgust oyida "Ijro.gov.uz" tizimida bajarilishi lozim bo'lgan nazoratdagi topshiriqlarni bajarishning kunlik "Kalendar-grafik" va ijrosini samarali tashkil etish bo'yicha "Yo'l xaritasi" Vazirlar Mahkamasiga taqdim qilindi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi.